



**QAHRAMONNING HAYOTI – IBRAT MAKTABI**

**3**

**METALLURGIYA SANOATINING YETAKCHISI**

**4-5**

**“YASHIL MAKON” – BARCHAMIZGA KERAK**

**7**

**Po‘lat o‘tda toblanadi, odam – mehnatda**

# Metallurg Minbari



O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko‘p nusxali gazetasi

2024-yil 30-aprel № 4 (1538)  
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



## 9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI

Ikkinchi jahon urushi dahshatlarining guvohi bo‘lgan kishilar tobora kamayib bormoqda.

Bugun shahrimizda urush faxriylaridan faqatgina Hasanboy Xolmatov va Tursun Musurmonqulov (o‘ngdan chapga) umrguzaronlik qilmoqda. Ular kabi yoshlikning navqiron chog‘larini urush olovlarida, janggohlarda o‘tkazib, bugungi tinch va osoyishta hayotimiz uchun kurashgan insonlar jasorati beqiyosdir.



May oyining uchinchi yakshanbasi – 19-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni. Kasb bayramingiz muborak bo‘lsin, aziz metallurglar!

## JASORAT VA MATONATINGIZ, MEHNATINGIZ UCHUN RAHMAT!

**Muhtaram faxriylar!  
Hurmatli metallurglar!  
Qadrli bekobodliklar!**

Siz azizlarni kirib kelayotgan umumxalq bayrami Xotira va qadrlash kuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Xotira va qadrlash kuni ajdodlarimiz jasoratini ulug‘lash va ota-bobolarimiz nomlarini abadiylashtirishga xizmat qilayotgan muhim bir sana sifatida barcha yurtdoshlarimiz qalbidan chuqur joy oldi.

9-mayda ikkinchi jahon urushida erishilgan Buyuk G‘alabaning 79-yilligi ham nishonlanadi. Fashizmga qarshi kurashda halok bo‘lgan minglab vatandoshlarimizning so‘nmas xotiralarini yod etib, ularning ruhi poklariga hurmat bajo keltirish – biz uchun ham qarz, ham farzdir. Ayni vaqtda mustaqil Vatanimiz ozodligi, el-yurt tinchligi yo‘lida jonlarini qurbon qilganlarning nomlarini hurmat

va ehtirom bilan esga olamiz.

Xalqimizning ikkinchi jahon urushi davrida ko‘rsatgan jasorati, bukilmaz irodasi va matonati, insonparvarlik fazilatlarini avlodlar uchun muqaddas xotira va odamiylikning yuksak namunasi bo‘lib qolmoqda.

Fashizmga qarshi urushda mardonavor jang qilgan, og‘ir mashaqqat va musibatlarni boshdan kechirgan qahramonlar va xalqimiz asrlar davomida orzu qilgan erkinlik uchun o‘z jonini qurbon qilganlar xotirasi hamisha biz uchun azizdir. Vatani himoya qilishda jonini fido qilgan, xalq orzu qilgan mustaqillik uchun kurashgan milliy qahramonlarimizning ruhi oldida yana bir bor ta‘zim qilamiz.

Jang maydonlarida jasorat ko‘rsatgan, front ortida fidokorona mehnat qilib, bugun oramizda sog‘-salomat bo‘lib yurgan muhtaram faxriylarimiz izzat va e‘tiborda. Hozirgi tinch-osoyishta hayotimiz, musaffo osmonimiz uchun ularga cheksiz minnatdorlik bildiramiz.

(Davomi 2-betda).

### BUGUNGI SONDA

#### TABRIK

Bayramlar muborak bo‘lsin! **2**

#### EHTIROM

Ularning jasorati unutilmaydi **3**

#### JARAYON

"O‘zmetkombinat" AJ yashil toifada **6**

#### BOR GAP

Korrupsiya barchamiz uchun tahdid **8**

#### SO‘RAGAN EDINGIZ

Nogironlik davri ish stajiga qo‘shiladimi? **9**

#### SALOMATLIK

Ijtimoiy xavfi yuqori bo‘lgan kasallik **10**

#### SPORT

“Metallurg” keyingi bosqichda **11**

#### IBRAT

Baxtni qidirish **12**



# JASORAT VA MATONATINGIZ, MEHNATINGIZ UCHUN RAHMAT!

## (Davomi. Boshi 1-betda).

Qadrlil metallurqlar va aziz mehnat faxriylari!

Bu yil jonajon kombinatimiz tashkil etilganligiga 80 yil to'ldi. Biz uchun bu sana juda qadrlil. O'tgan davrda korxonamizda ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi. Yangi-yangi sexlar ishga tushirildi. Minglab yoshlar mehnatda toblandi. Qator mehnat Qahramonlari yetishib chiqdi. Ko'plarga Vatanimizning yuksak mukofotlari topshirildi.

Endilikda Bekobodda minglab ishchi va mutaxassislarning fidokorona mehnati tufayli rivojlangan ishlab chiqarish, transport va ijtimoiy infratuzilmasini o'zida mujassam etgan, mamlakatimizning yetakchi sanoat korxonalaridan biri qad rostladi. Bu O'zbekiston metallurgiya kombinatidir.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishda, xalqimizning farovonlikka erishib borishida metallurgiya sanoati muhim o'rin tutadi. Yurtimizning qaysi joyida bo'lmang metallurqlarning mehnati bilan yaratilgan mahsulotlarga ko'zingiz tushadi. Zamonaviy binolar, yirik inshootlar, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari – barcha barchasi "O'zmetkombinat" AJda tayyorlangan prokat mahsulotlari bilan qad roslamoqda.

Barchamiz guvohi bo'lib turibmiz, davlatimiz va hukumatimiz tomonidan kombinatga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oxirgi yillarda muhtaram Yurtboshimizning kombinatga shaxsan uch marotaba kelishlari bizga nisbatan bo'layotgan g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kombinatimizning ishlab chiqarish quvvati va moliyaviy-iqtisodiy holatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlarini belgilab berdi. Aynan shundan so'ng "O'zmetkombinat"da ulkan bunyodkorlik ishlarining yangi davri boshlandi.

Oldinda bizni yangi loyihalar, yangi taraqqi-

yot dasturlari, jiddiy investitsiyalar kutmoqda. Biz yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilib, o'zlashtirmoqdamiz, Ulardan biri mamlakatimizda ham yirik bo'lgan investitsiya loyihasi – Quyuv-prokatlash majmuasi qurilishini amalga oshirmoqdamiz. Bu majmua ishga tushsa kombinatda prokat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ikki baravardan ko'payib, jami 2 million tonnadan oshadi.

Yangi ish o'rinlari barpo etish, zamonaviy energiya tejavchi va ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda, sifatli, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish asosiy maqsadimiz.

Bugungi kunda kombinatimizni taraqqiy ettirish yo'lida davrning o'zi talab etayotgan, biz boshlagan keng ko'lamlil islohot va o'zgarishlar-

ni bir yoqadan bosh chiqarib, izchil amalga oshirib, oldimizga qo'yilgan ulkan marralarga albatta erishamiz.

Aziz metallurqlar, hurmatli faxriylar!

Sizlarni kelayotgan bayramlarimiz – Xotira va qadrlash kuni hamda O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni bilan yana bir bor qutlar ekanman, barchangizga salomatlik va baxt, oilaviy farovonlik yor bo'lishini, ezgu orzu-maqсадlaringiz amalga oshishini tilayman.

Ona-Vatanimiz gullab-yashnashi yo'lidagi mehnatingizga omad yor bo'lsin!

**Rashid PIRMATOV,**

**"O'zmetkombinat" AJ boshqaruv raisi – bosh direktor.**

## KIRIB KELAYOTGAN BAYRAMLAR MUBORAK BO'LSIN, AZIZ METALLURQLAR!



## TA'ZIM VA EHTIROM SIZGA!

### Hurmatli metallurqlar, hamkasblar, aziz faxriylar!

Sizlarni yaqinlashib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni hamda Xotira va qadrlash kuni bayramlari bilan kombinat Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi a'zolari nomidan samimiy tabriklayman!

Xotira va qadrlash kuni davlatimiz tarixiga Vatanimiz ozodligi, sha'ni va mustaqilligini himoya qilgan barcha xalqlarning buyuk birdamligi namunasi sifatida muhrlandi. Ushbu qutlug' sana xalqimizning ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan yuz minglab vatandoshlarimiz xotirasini e'zozlashi, yurtimiz osoyishtaligi va farovonligiga bugungi kungacha o'z hissasini qo'shib kelayotgan faxriylarga cheksiz hurmat va ehtirom ko'rsatishi yaxshi an'anaga aylandi.

Korxonamiz Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan har yili Xotira va qadrlash kuni va boshqa qutlug' sanalarga bag'ishlangan turli tadbirlar, uch avlod uchrashuvlari, davra suhbatlari o'tkazib kelinmoqda. Bundan asosiy maqsad keksa avlod vakillarini e'zozlash, ularga minnatdorlik bildirishdir. Bugungi tinch hayot uchun jang maydonlarida jonini fido qilganlar, yurtimizni yuksaltirganlar, front ortida kuch va salomatligini ayamay mehnat qilganlar xotiramizda abadiy qoladi.

1945-yilning bahoridan buyon yillar o'tsada bu ozod

zaminda yashash huquqi, kelajak avlod tinchligi va farovonligiga yo'l ochib bergan Buyuk G'alabani hech qachon unutmaymiz. Faxriylarga, o'z hayoti evaziga dunyoni fashizmdan qutqargan qahramonlarga ta'zim qilamiz.

Hurmatli metallurqlar va ishlab chiqarish faxriylari!

May oyining uchinchi yakshanbasida yana bir bayramimiz – O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kunini nishonlaymiz. Bu yil biz uni o'zgacha tuyg'u bilan nishonlaymiz, chunki 2024-yilda jonajon korxonamiz 80 yoshga to'ldi.

"O'zmetkombinat" AJ tarixi ota va bobolarimizning mehnat tajribasi va an'analari, bekobodlik metallurqlarning erishgan yutuqlari, yuksak fidoyilik va bunyodkorlik mehnatidan iborat.

Texnologiyalar qanchalik zamonaviy bo'lmasin, metallurgiya sanoati avvalo, insonlar mehnati bilan taraqqiy etib boradi. Metallurg kasbi mardlik, fidoyilik va yuksak mahorat timsoliga aylandi. Shu bois metallurqlarimizni kasb bayramlari munosabati bilan tabriklab, ularga munosib hurmat-ehtiromimizni ko'rsatamiz.

**Hurmatli metallurqlar!**

Barchangizga sihat-salomatlik, yangi yutuq va zafarlar, oilaviy baxt va farovonlik tilaymiz.

**Elzara VELIULLAYEVA,**

**"O'zmetkombinat" AJ Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi raisi.**

## METALLURG MADHI

Ko'z ochib ko'rganim sen,  
Mening olov so'zimsan.  
Sirdan turib olamga  
Cho'g' tashlagan ko'zimsan.

Olovlar bir shahar,  
Bag'rim nurga to'ladi.  
Quyilgay bir yurakdan  
O'zbekimning po'lati.

Po'latdan bel bog'lading,  
Sir – Amuni quchaman,  
Yonayotgan bu yurak  
Dunyo ichra bir chaman

Istiqloлга tayanchsan,  
Po'latdandir bardoshing.  
Senga mamnun qo'l cho'zar,  
Do'stu o'rtoq qardoshing.

Metallurqlar mehnati,  
Shuhrat topdi elimda,  
Sakson yoshing muborak,  
Madhing yangroq tilimda.

**A. BOYMURODOV.**



## XOTIRA MUQADDAS, QADRLASH BURCHDIR

Xotira va qadrlash kunlarida o'z Vatani himoya qilishda jonini fido qilgan, shuningdek, To'maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi qahramonlar va asrlar davomida xalq orzu qilgan erkinlik uchun kurashgan Abdulla Qodiriy, Behbudiy, Munavvarqori, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Fitrat, Usmon Nosir kabi milliy qahramonlarimizning ruhini shod etib eslash ham farz, ham qarzdur.

Insoniyat ikkinchi jahon urushida qatnashgan, bu ayovsiz jangu-jadalda qahramonlarcha halok bo'lganlar xotirasini aslo unutmaydi. G'alaba kunlarini yaqin-



lashtirib, bu urushdan qaytmagan Vatanimizning besh yuz mingdan ziyod farzandini chuqur iztirob bilan eslaymiz, ularning xalqimiz yuragidagi o'chmas xotirasi oldida bosh egamiz.

Shu aziz Vatanda yashab o'tganlarning ruhi poklarini doimo xotiramizda saqlash, safimizda hayot yurgan mo'tabar faxriylarimizni har tomonlama e'zozlash barchamizning insoniy burchimizdir.

**Barcha faxriylarimizni, aziz yurtdoshlarimizni kelayotgan Xotira va qadrlash kuni bilan tabriklaymiz!**

Olim SARDOROV.

QAHRAMONNING HAYOTI –  
IBRAT MAKTABI

Asad Ergashev 1926-yil 10-martda Buxora viloyatining Qorako'l tumanida tug'ilgan. Uning bolalik yillarida hayot juda qiyin kechgan. Ota-onasi 11 nafar farzand ko'rishgan, ammo sharoitning og'irligi sababli 7 nafar farzand olamdan o'tgan. Qahramonimiz 40 kunlik chaqaloqligida qora chechak bilan qattiq og'rigan. Uni ham o'ldi, deb o'ylab qabristonga ko'mib kelsin, deb amakisini chaqirishgan. Amakisi chaqaloqda tiriklik belgilari borligini sezib, uning hayotga qaytishiga sababchi bo'lgan.

– 6 yoshimda otam olamdan o'tdi, onamga qiyin bo'lgan, chunki oilaning hamma yumushi, og'irligi onamning yelkasiga tushdi, – deya xotirlagan edi Asad bobo. – Qishloqda alohida maktab binosi yo'q edi. Darslar tegirmonda, omborxonalarda bo'lardi. Zax va sovuq, qorong'u xonalarda o'tirardik. 5-7-sinflarda tuman markazida o'qiganmiz. 1941-yilda maktabni bitirdim. O'shanda 22-iyunga Toshkentga ekskursiya belgilangan edi, lekin urush boshlandi. Erkaklar frontga ketganligi bois ularning o'rnini to'ldirish maqsadida 15 yoshimdan boshlab jamoa xo'jaligida ishlay boshladim. Kuniga 15, 16 soatlab ishlar edik. Ko'pincha tunab qolish uchun molxona va dalaning o'zida qolardik.

1942-yilda katta akasi To'xta frontga ketdi. Oradan ko'p o'tmay janglarda yaralanib hospitalga tushib qoladi. Davolanayotgan payti akasidan xat kelgan edi. Unda "Ertaga jang bo'ladi, og'ir jang. Hech bo'lmasa 1 ta barmog'i, 1 ta ko'zi ishlay olgan askar ham jangga chiqadi, men ham jangda qatnashaman. Agar boshqa xabar yoza olmasam men halok bo'lgan bo'laman",

deb yozgan. Shundan so'ng uning Stalingrad janglarida izsiz yo'qolganligi haqida noxush xabar keldi.

1944-yilda A. Ergashev 18-yoshga to'lishi bilan qishlog'iga harbiy komissarlik xodimlari kelishdi va hatto yaqinlari bilan xayrlashishga ham imkon bermay Qorako'l-dagi chaqiruv punktiga olib ketishadi. Ularni – 170 nafar kishini frontga emas Bekobodda qurilayotgan metallurgiya zavodi qurilishiga safarbar qilishadi.

– 1-sentabrda biz Xovos stansiyasida edik, keyin bizni Bekobodga jo'natishdi. Bizga yashash uchun qamishli uylardan joy berishdi. Meni Marten sexiga metall erituvchi qilib ishga olishdi. Mehnatda toblanganim uchun tezda jamoaga kirishib ketdim, – deya yodga olgan edi o'sha yillarni A. Ergashev.

1948-yilda uni ustalikka o'tkazishadi. 1959-yildan po'lat quyuvchilar katta ustasi bo'ladi. Shu vazifada 1980-yil pensiyaga chiqquncha ishlaydi. Shu yillar mobaynida Marten sexi bir necha marta metallurgiya sanoatida metall quyish va pechdan sifatli metall olish bo'yicha g'olib bo'lgan. Natijada 8 yil ichida uch nafar bekobodlik metallurg Mehnat Qahramoni unvoni bilan taqdirlangan. Shular qatorida 1966-yilda Asad Ergashevga ham Mehnat Qahramoni unvoni berilib, ko'ksiga "Oltin yulduz" taqilgan.

Mehnat Qahramoni 2015-yil mayda vafot etgan. Uning amalga oshirgan xayrli ishlarini endilikda bekobodlik metallurglar davom ettirishmoqda. Asad boboning yorqin xotirasi shogirdlari, hamkasblari, do'stlari va yaqinlari qalbida abadiy qoladi.

Diyor ZULFIQOROV.

Nabi Qosimov qurilish sohasida mehnat qilib tanilgan. Ko'plab qurilish ob'ektlarida, jumladan metallurgiya zavodi qurilishlarida ham ishtirok etgan. Eng sharafli kasb egasi bo'lgan otaxon bugun oramizda bo'lmasada, uning insonlar farovonligini ta'minlash, ayniqsa, ikkinchi jahon urushida Leningrad shahri aholisini ochlikdan saqlashdagi xizmatlari barhayot.

ULARNING JASORATI  
UNUTILMAYDI

Leningrad shahri ikkinchi jahon urushi yillarida fashistlar tomonidan qamal qilingan. Shahar himoyachilari va aholisini oziq-ovqat, o'q-dorilar bilan ta'minlashda Ladoga ko'li ustidan o'tgan muzlama yo'lining ahamiyati katta bo'lgan. "Hayot yo'li" deb nom olgan bu ko'l orqali N. Qosimov o'zining "polutorka" deb nom olgan yuk mashinasida shaharga ko'p bor qatnagan.



Nabi ota 1942-yil 22-sentabrda urushga chaqiriladi. Avvaliga desant qo'shinlarida xizmat qiladi. Frontlarda barqarorlikka erishilganidan so'ng qo'shinlardagi harbiylar mutaxassisliklari bo'yicha qismlarga bo'lina boshladi. Shu sabab u o'z kasbi haydovchilikka o'tkaziladi.

Qahraton sovuqda u quroldoshlari bilan qamaldagilarga Ladoga ko'li orqali oziq-ovqat mahsulotlari tashiy boshladi. Ocharchilikdan juda ko'p odamlar o'layotganini ko'rib, bilib turgan haydovchilar iloji boricha tez va talofatsiz Leningradga yuklarni elitishga, orqaga qaytishda shahar aholisini qamaldan olib chiqishga harakat qilardilar.

Biroq har bir qadamda muz yorilib halokatga uchrash hech gap emas edi. Haydovchilar maboda muz yorilsa mashinadan sakrab tushishga ulgurish uchun "polutorka"larining eshiklarini ochib yurishar edi. Ustilaridagi po'stinlarini osongina yechish uchun uni yelkalariga tashlab olardilar. Chunki, mashina muz yorilib ko'lga tushib ketsa po'stin bo'kib, og'irligidan haydovchilarni suv tubiga tortib ketardi.

Ko'p yillar avval otaxon bilan suhbatlashganimda u kishi qamaldagi aholining metin irodasi, chidamiga ko'p bor guvoh bo'lganligi haqida aytgan gaplarini hali ham unutmayman:

– Biz "Hayot yo'li" orqali keltirgan nonlar to'kilib ketganda ocharchilikdan silasi qurigan leningradliklar ularni olmay, bizga nonlarni to'plashga yordam berardilar. Ochdan o'lay deb qolgan

odamlarning qo'lidagi nondan hatto bir tishlamasligi uchun ulardan qanchalik katta sabr-bardosh talab etilishini o'ylab ko'ring-a! Oddiy kishilar, askarlarning irodasi kuchliligi, qiyinchiliklarni mardonavor yengganliklari tufayli ham nemislar shaharni bosib ololmagan.

G'alabani Kyonigsbergda kutib olgan N.Qosimov 1948-yili harbiy xizmatdan uyiga qaytib keladi. 1998-yilgacha quruvchi kasbida ishlaydi. Bu sohada ham o'z vazifalarini sidqidildan bajaradi. 12 nafar farzandning otasi bo'ladi.

Otaxon 1985-yil Leningradni himoya qilgan harbiylar qatorida bu shaharga taklif etilgan edi. Bir oyga yaqin jang qilgan joylari bo'ylab sayohat qilib keladi. Halok bo'lgan quroldoshlari, ocharchilikdan vafot etgan leningradliklar xotirasini abadiylashtirish uchun qilingan ishlarni ko'rib quvonadi.

Ikkinchi jahon urushining olovli janglarida qatnashganlar, og'ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, mashaqqatli daqiqalarda ham o'zligini yo'qotmagan, imoni butun yurtdoshlarimiz xotirasini xalqimiz aslo unutmaydi.

Ismat DIYOROV.



## O'ZBEKISTON METALLURGIYA KOMBINATI - 80 YOSHDA METALLURGIYA SANOATINING YETAKCHISI

### QURILISH OG'IR DAVRDA BOSHLANDI

O'zbekiston metallurgiya zavodining qurilishi ikkinchi jahon urushining eng og'ir yillari, xalqimizning qiyinchilik va mashaqqatli hayotni boshidan kechirayotgan davrga to'g'ri kelgan edi. Bir tomondan jafokash xalqimiz o'zidagi bor boyliklarini, hatto ekin maydonlarida yetishtirgan va o'z xonadonlarida "bir qora kunimga yarab qolar" deb asrab yurgan turshakmi, shaftoli qoqimi, jiyda-yu yong'oqmi, unmi, borini frontga yuborayotgan, ikkinchi tomondan fashistlarga qarshi kurashda o'qlarga ko'ksini qalqon qilib shahid ketayotgan aziz farzandlaridan ajralish musibatini totayotgan og'ir damlarda - 1942-yil kuzida Bekobodda zavod qurilishi boshlandi.

1944-yilning 5-mart kuni ertalabdan zavodda birinchi bo'lib qurilgan Marten sexi ichiga odamlar yig'ildilar. Mamlakat ichkarisidan ko'chirilgan va ne mashaqqatlar girdobida tezlik bilan qurilgan O'zbekiston metallurgiya zavodining Marten sexi ishga tushirilishi munosabati bilan o'ziga yarasha "tarixiy" tantanali yig'ilish bo'ldi. Bu yig'ilishda O'zbekiston hukumatining rahbarlari, marten pechini qurishda jonbozlik ko'rsatganlar, shu yerlik keksa otaxonlar, frontdan og'ir yaralanib kelgan majruh, nogiron yigitlar, jamoatchilik vakillari bor edilar.

Shu kuni Marten pechida birinchi o'zbek po'lati eritildi. Ungacha O'zbekistondagina emas, balki butun Markaziy Osiyoda bunday "katta" sex bo'lmagan edi. O'zbek po'latining yiltirab turgan qotishmasini ko'rib quvonmagan odam qolmadi. Hammaning yuzlarida xursandchilik, qalblarda shodlik hukmron bo'ldi.



### SHARAFLI YO'LNI BOSIB O'TDI

Mana shu tarixiy voqeaga bu yil roppa-rosa 80 yil to'ldi. O'tgan davrda metallurgiya kombinati og'ir va sharaflilarni bosib o'tdi va mamlakatimizdagi yirik va yetakchi sanoat korxonalaridan biriga aylandi. O'tgan 80 yil davomida kombinatning ishlab chiqarish hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, bekobodlik metallurglarning qator yangi quvvatlarni o'zlashtirganlari, mahsulot ishlab chiqarish turlarini ko'paytirganliklari haqidagi xushxabarlar butun mamlakatimiz bo'ylab keng



quloch yoydi.

O'tgan asrning yetmishinchi va saksoninchi yillari korxonada hayotida muhim burilish yillari bo'lgani ham e'tiborga molik edi. Bu yillarda metall prokatlari ishlab chiqarish jarayonida tezlashish, muhandis-texniklar, ishchilar faoliyatida mehnatga yangicha yondashish kuzatildi.

### KATTA HAJMDAGI ISHLAR BAJARILDI

Yetmishinchi yillarga kelib O'zbekiston metallurgiya zavodida yanada katta qurilish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishga kirishildi. O'n yil davom etgan bunyodkorlik, qayta qurish, rekonstruksiya ishlari natijasida juda katta hajmda ishlar bajarildi.

Korxonada yangi qurilishlar to'xtamadi. Dastlab Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish majmuasini barpo etish boshlandi. 1974-yilning avgust oyidan boshlab korxonada uy-ro'zg'or uchun zarur bo'lgan iste'moli mollari ishlab chiqarila boshlandi.

Bu yirik qurilish bitkazilib, foydalanishga topshirilgandan so'ng, boshqa qurilishga qo'l urildi.

Qurilajak bino korxonada ishlab chiqarishida muhim o'rin tutishi, shuning uchun u mukammal loyiha asosida barpo etilishi hamda qisqa muddatlarda tugallanishi e'lon qilindi. 1974-yilning ikkinchi yarmida boshlangan yirik qurilish jarayonida avval Elektrda po'lat eritish sexi bunyod etilishi kerak edi. Shuning uchun toshloq keng joy bo'lgan yer tanlab qurilish boshlandi. Elektrda po'lat eritish sexi asosiy korpusining birinchi poydevoriga beton quyilishi marosimi bo'ldi. Unda Respublikaning o'sha paytdagi birinchi rahbari Sharof Rashidov qatnashdi. Respublikaning qurilishga dahldor rahbarlari, Toshkent viloyati, shahar, tuman rahbarlari, quruvchilar, kombinat ishchilari qurilish ko'lamini oshirishga hissa qo'shish uchun va'da berdilar. Tez orada ish qizg'in tus olib ketdi.

Qurilishga yangi-yangi yordamchi pudratchi tashkilotlar jalb qilinishi sur'atga sur'at qo'shildi. Qurilishda kunduzlari 1-1,5 ming nafardan ziyod odamlar ishlardilar.

Elektrda po'lat eritish sexining boshqa ob'ektlari ham shitob bilan qurilib, navbatmanavbat ishga tushirildi. 1978-yilning 13-fevralida EPESning birinchi elektr pechida dastlabki po'lat olindi. 1979-yilning sentabr oyigacha yana ikkita pech uzluksiz po'lat quyish mashinalari bilan

birga ishga tushirildi. 1984-yil 30-iyulda esa 2-navli prokat sexi foydalanishga topshirildi. Bu o'z vaqtining zamonaviy deyarli yangi zavodi qo'shimcha xizmat ko'rsatish sexlari, uchastka va xizmatlar bilan ishga tushirildi.

### TARAQQIYOT SAMARASI

Ana shunday ijobiy o'zgarishlardan keyin korxonada po'lat eritish va prokat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'ati keskin darajada oshdi.

Korxonaning umumiy maydoni 35 gektardan o'n baravardan ham ziyodroqqa kengaytirildi. Ishchi o'rinlari ko'payib qo'shimcha ishchi va muhandis xodimlar olindi. Endi bu korxonada katta bir hududni egallagan zamonaviy shaharchani eslatardi. Ikki yarim ming nafar atrofidagi ishchilar soni to'rt baravarga oshgan va o'n ming kishiga yetgan edi. Po'lat eritish, prokat mahsulotlari, sirlangan idishlar ishlab chiqarish bir necha baravarga oshdi. Korxonada zarar ko'rib ishlashdan foyda olish sari dadil qadam qo'ydi.

Metallurgiya kombinati bu davrga kelib o'zini ancha tiklab olgan edi. Korxonada rahbariyati o'z muhandis, ishchi-xodimlari uchun katta hajmda turar-joy binolari, bolalar bog'chalari, shifoxona majmuasi, poliklinika, sog'lomlashtirish profilaktoriysi, 100 o'rinli mehmonxona kabi muassasa va inshootlarni ham qurib foydalanishga topshirgan, bu bilan o'z jamoa a'zolarining turmush tarziga ijobiy ta'sir etgan edi.



### QAHRAMONLARIMIZ

O'tgan davrda kombinatning ko'pgina ishchi-xodimlari hukumatning yuqori faxriy unvonlariga sazovor bo'lgan va orden hamda medallar bilan taqdirlanganlar. Ular orasida ishlab chiqarish taraqqiyotiga, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta hissa qo'shganlardan Hofiz G'aniyev, Asad Ergashev, Said Nurutdinov, davlatimiz mustaqilligi yillarida Abdurahmon Abdurazzoqov va Olim To'ychiyev "Mehnat Qahramoni"dek yuksak unvonga musharraf bo'ldilar.

(Davomi 5-betda).



# O'ZBEKISTON METALLURGIYA KOMBINATI - 80 YOSHDA METALLURGIYA SANOATINING YETAKCHISI

(Davomi. Boshlanishi 4-betda).

## YANGICHA FIKR, G'OYALAR KIRIB KELDI

Mustaqillik yillarida O'zbekiston metallurgiya kombinati O'zbekiston Respublikasi sanoatining eng yirik korxonalaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston metallurgiya kombinatini qo'llab-quvvatlash, faoliyatini tubdan yaxshilash to'g'risida qilayotgan g'amxo'rliklari natijasida yangi quvvatlar, texnologiyalar ishga tushirildi. Bu esa sohaga aloqador har bir kishini ruhlantirdi. Korxonaga yangicha fikr, innovatsion g'oyalar kirib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 18-avgust kuni Bekobod shahri va "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatiga tashrifi katta tarixiy voqea bo'ldi. Davlatimiz rahbari "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining yangi istiqbolli loyihalari taqdimoti bilan tanishdi. Kombinat ishchi-xodimlari bilan o'tkazgan suhbatlarida haqiqiy holat haqida yetarli tushunchaga ega bo'ldi. Shundan keyin ishlab chiqarish, kombinat quvvati va moliyaviy-iqtisodiy holatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlarini belgilab berdi. Shu yildan "O'zmetkombinat" da ulkan bunyodkorlik, yangilanish ishlari boshlandi.



qilish evaziga nafaqat kombinat, balki mamlakat taraqqiyotida bu majmua o'zining munosib o'rniga ega bo'ladi.

Shu kuni Prezident ishtirokida kombinatda Ferrototishmalar ishlab chiqarish sexi tantanali ravishda ishga tushirildi. Bu bo'linma Janubiy Koreyaning "Posco Daewoo" kompaniyasi ishtirokida qurilgan bo'lib, yiliga 15 ming tonna ferrosilitsiy, 10 ming tonna ferrosilikomarganes ishlab chiqaradi.

Ferrosilitsiy va ferrosilikomarganes qora metallurgiya sanoatida po'latni deoksidlovchi sifatida keng qo'llanilmoqda. Oddiy til bilan aytganda ular po'latning qattqlik, bardoshlik va egiluvchanlik xususiyatlarini oshiradi. Shuning uchun ham ferrototishmalar tarmoqdagi eng tez realizatsiya qilinadigan materiallardan

qo'yildi. Bu loyiha ferrototishmalarining va po'lat quyimalarning tannarxini mos ravishda tonnasiga 40 va 3 dollargacha kamayishiga xizmat qiladi. Bu yiliga 4 200 ming dollar valyuta mablag'lari tejalandi degani.

## TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIGA O'TILMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 12-avgust kuni Bekobod shahriga, "O'zmetkombinat" AJga uchinchi bor tashrifida metallurgiya sohasida ulkan loyihalarning amalga oshirilishi chora-tadbirlarini, asosiy vazifalarni belgilab berdi. Mamlakatimiz metallurgiya sanoati, "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati, davlatimiz rahbarining e'tibori va qo'llab-quvvatlashi tufayli taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tmoqda, ishlab chiqarish hajmi, sifati ortmoqda.

2022-yilda Navli prokat sexiga xorijdan termomustahkamlash liniyasi keltirilib, ishga tushirildi. Yiliga 500 ming tonna termomexanika usulida mustahkamlangan A500 va A800 sinfiga mansub bo'lgan armaturalar ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi.

Armaturalarni termomustahkamlash jarayonida kimyoviy moddalar tejaligini hisobiga armatura tannarxi kamayadi. Termomustahkamlangan armaturalarning qo'shimcha ekspluatatsion xossalari "O'zmetkombinat" AJ mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va iste'molchilarning qurilishda, ayniqsa, zilzilaga moyil bo'lgan hududlarda ishlatiladigan metall mahsulotlari xavfsizligiga qaratilgan ortib borayotgan talablarini qondirish imkonini berdi.

Bozor munosabatlari metall prokati mahsulotining sifatiga yuqori talablarni qo'yadi. Bugungi kunda "O'zmetkombinat"ning barcha mahsulotlari sertifikat sinovlaridan o'tgan. Navli prokat, po'lat zoldirlar, sirlangan po'lat idishlar va boshqa mahsulotlarning sertifikatlari yaqin va uzoq xorijiy davlatlar iste'molchilari tomonidan yuqori baholanadi.

Barcha sohada prokat mahsulotlariga bo'lgan talab yuqori. Bunyodkorlik ko'lami kengaygani sayin, bu mahsulotlarga bo'lgan talab yanada ortib bormoqda.

Shu tufayli kombinat yildan yilga yuqori sifatli metall prokati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirmoqda va iste'molchilarning, shu jumladan, eksport buyurtmalarini bajarib kelmoqda.

Hozirgi kunda kombinat tomonidan qora metall prokati mahsulotlari, mis va latun lentalar, ferrototishma va issiqliq o'tkazmaydigan mahsulotlar, sirlangan emal idishlari kabi 10 dan ortiq, jami yillik 100 million dollarga teng mahsulotlar eksport qilinib kelinmoqda.

Kombinatda ishlab chiqarish salohiyatining barqaror o'sishini ta'minlash, eksportga yo'naltirilgan raqobatbardoshli mahsulot tayyorlash hajmini oshirish, shu bilan birga yangi ish o'rinlarni yaratish borasida olib borayotgan ishlar davom etmoqda.

Ismadiyov MAMATQULOV.



## YANGI QUVVATLAR ISHGA SOLINMOQDA

Oradan bir yil o'tib 2018-yil 29-avgust kuni mamlakatimiz rahbari yana metallurgiya kombinatimizga tashrif buyurdi. Prezident yirik investitsiyaviy loyiha bo'lgan Quyuv-prokatlash majmuasini qurish loyihasini amalga oshirishni boshlash uchun tamal toshi qo'ydi. Bu majmua qurilishi bilan birga "O'zmetkombinat" AJ ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va rekonstruksiya qilish" loyihasi asosida kombinatda bir qator ishlar boshlandi. Quyuv-prokatlash majmuasida yiliga 1 million tonna mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Bu loyiha amalga oshirilishi evaziga kombinatda mahsulot ishlab chiqarish ikki baravarga oshishi bilan birga import o'rnini bosadigan, eksportga yo'naltirilgan yangi mahsulotlar - po'lat list o'ramlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport

hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston metallurgiya kombinati ko'p yillar mobaynida ferrosilitsiy va ferrosilikomarganesni chet ellardan keltirishga majbur bo'lgan. Har yili uni sotib olish uchun 17 million dollar sarflangan. Shuning uchun ham yangi ishlab chiqarish quvvatining ishga tushishi kombinatga katta miqdordagi valyutani tejash imkonini berdi.

2019-yilda investitsion loyiha asosida Navli prokatlash bo'linmasida sim blokini o'rnatish bilan "300" standa katanka ishlab chiqarish uchastkasi tantanali ravishda ishga tushirildi. Ushbu ob'ektning ishga tushirilishi evaziga kombinatda 100 ming tonna po'lat simlar va armatura bog'lamlari ishlab chiqariladi. Ular ham ichki bozorlarga chiqariladi, ham tashqi bozorlarga eksport qilinadi.

2022-yilda kombinatda avvallari xorijdan import qilingan, ferrototishmalar ishlab chiqarish va elektrda po'lat eritish uchun zarur bo'lgan yuqori omli koks ishlab chiqarish yo'lga







## YANGI TIZIM ASOSIDA

Davlatimiz rahbarining yoshlarga alohida e'tibor va g'amxo'rliqi tufayli yoshlar siyosatida mutlaqo yangi tizim yaratildi. Yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o'rganilib, ular bilan manzilli, aniq mezonlar asosida ishlash yo'lga qo'yildi. Har bir vazirlik va idora rahbarlariga hududlardan yoshlar biriktirilib, mavjud muammolarni yechish bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

"O'zmetkombinat" AJga ham shahrimizning "Muqimiy" va "O'zbekiston" MFY hududlarida istiqomat qiluvchi bir guruh yoshlar biriktirilgan. Kombinat mutasaddilari bu mahallalardagi yoshlar bilan uchrashib, ularning ayni kundagi turmush-tarzini o'rganishdi. Kombinat Yoshlar yetakchilari kengashi raisi Abdug'afvor Mirzayev mahalla mas'ullari bilan birgalikda korxonaga biriktirilgan yoshlarning yashash xonadonlariga bordi. Ular yoshlarni qiyayotgan muammolar va hal qilinishi kerak bo'lgan masalalarni o'rganishdi.

"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi – bosh direktorning

shu mahallalardagi yoshlar bilan uchrashuvi ham tashkil qilindi. Uchrashuv chog'ida yoshlarning oilaviy, ijtimoiy holati, muammolari, qiziqishlari, orzulari va imkoniyatlari o'rganildi.

Endi ushbu yoshlarga ko'maklashish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifa va tadbirlardan iborat "yo'l xarita"si ishlab chiqiladi va vazifalar ijrosi kelgusida muntazam ravishda tashkil etiladigan uchrashuvlarda nazorat qilib boriladi.

Uchrashuvdan so'ng yoshlar kombinat faoliyati bilan yaqindan tanishishi uchun kombinat tarixi muzeyida bo'ldilar.

## MEHNAT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI UCHUN

28-aprel – Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni sifatida keng nishonlanadi.

Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligiga korxonalarda eng asosiy vazifalar qatorida e'tibor qaratiladi. Bu sohada olib borilayotgan chora-tadbirlar tufayli ham ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar tufayli kishilarning halok bo'lishi, turli darajada jarohatlar olishi kamayishiga erishilmoqda. Kombinatimizda ham mehnatni muhofaza qilish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda



## "O'ZMETKOMBINAT" YASHIL TOIFADA

Yaqinda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligida Ochiqlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarining samaradorligi va natijadorligini baholash komissiyasining yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, 2023-yil yakunlariga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlarining samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi asosida to'plangan barcha ko'rsatkichlar atroflicha muhokama qilinib, yakuniy natijalar e'lon qilindi.

Mazkur Farmonda "Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida axborotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlari ko'rsatish holatini baholash mezonlari"ga asosan ochiqlikni ta'minlash bo'yicha monitoring o'tkazish hamda bu bo'yicha amalga oshi-

OCHIQLIK INDEKSI

rilayotgan ishlarining samaradorligi va natijadorligini baholash belgilangan.

Ochiqlik indeksida samaradorlik ko'rsatkichlarini 71 ball dan 100 ballgacha to'plaganlar – "yashil", 55 ball dan 71 ballgacha bo'lganlar – "sariq" va 55 ball dan past ko'rsatkich qayd etganlar – "qizil" toifalarga kiritiladi.

Ikkinchi bor e'lon qilinayotgan indeksda jami 103 ta (2022-yilda – 86 ta) davlat idoralari va tashkilotlari faoliyati qamrab olinib, 84 ta baholash mezonidan tarkib topgan 8 ta indikator asosida shakllantirildi. Baholash natijalariga ko'ra, 31 ta idora va tashkilot "yashil" (71-100 ball), 43 tasi "sariq" (55-71 ball) va 29 tasi "qizil" (55 ball dan past) samaradorlik ko'rsatkichlarini qayd etgan.

E'tiborlisi, "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati ushbu reytingda 77,5 ball bilan "yashil" toifada qayd etildi.

Reytingda Statistika agentligi 88,3 ball olib, birinchilikni egalladi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati 86,8, Markaziy bank 86 ball to'plab ikkinchi va uchinchi o'rinlarda qayd etildi.

## "JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT"

Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal demokratik partiyasining (O'zLiDeP) "O'zmetkombinat" AJdagi boshlang'ich tashkiloti tomonidan yaqinda Navli prokatlash bo'linmasi faollar zalida "Jaholatga qarshi ma'rifat" shiori ostida davra suhbat tashkil etildi.

Unda Bekobod shahar bosh imom-xatibi Ergashboy Hamidov jahonning ayrim mintaqalarida avj olayotgan murakkab jarayonlar haqida to'xtalarkan, yurtimizda diniy bag'rikenglik va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilayotganligini e'tirof etdi.

Diniy ishlar bo'yicha

qo'mitaning Bekobod shahar bosh mutaxassisi Bahrullo Valiyev ham so'zga chiqib, ilmsizlik va jaholat – jamiyatimizning eng katta dushmani, ayni paytda jamiyat uchun katta ofat ekanligi, uni faqat ma'rifat urug'i bilan yengish mumkinligi haqida to'xtalib o'tdi.

Davra suhbat davomida Bekobod shahar IIB boshlig'i o'rinbosari Jamshid Haydarov yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash ularni yot g'oyalardan himoya qilish, ayniqsa, qo'l telefonlaridan va ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish kerakligini aytib o'tdi.

Tadbir yakunida Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal demokratik partiyasining "O'zmetkombinat" AJ boshlang'ich tashkiloti raisi partiyaning yangi a'zolariga guvohnomalarni tantanali ravishda topshirdi.

**Davlat XOLMURODOV,**  
**O'zLiDePning "O'zmetkombinat" AJ**  
**boshlang'ich tashkiloti raisi.**



## 18-MAY – XALQARO MUZEYLAR KUNI

"O'zmetkombinat" AJning tarixi muzeyi shahrimizning asosiy madaniy-ma'rifiy maskanlaridan biridir. Muzeyda korxonaning qurilishidan tortib, ayni paytdagi faoliyati, ishlab chiqarayotgan mahsulotlar, tanikli metallurklar to'g'risida ma'lumotlar joy olgan.

Bu maskanda nafaqat kombinat ishchi-xodimlari, balki bekobodliklar, mehmonlar, hatto yaqin va uzoq xorij davlatlari vakillari ham kombinat tarixini qiziqish bilan o'rganadilar.

## "AJJOYIB HANGOMALAR"

Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan metallurglarning ishdan tashqari bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishlari uchun bir qator tadbirlar tashkil etilmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri yaqinda Metallurklar madaniyat saroyida o'tkazildi.

Unda O'zbekiston davlat yoshlar teatri ijodkorlarining "Ajoyib hangomalar" nomli konsert dasturi tashkil etildi. Bu konsertda iste'dodli so'z ustalari Sherzod Boymurodov, Erkin Jo'liyev, Ro'zimurod Allanazarov va Gulom Ernazarov o'zlarining hazil-mutoyibalari bilan metallurglarimizga xush kayfiyat taqdim etishdi. Shuningdek, dastur davomida xonanda Layloxon o'z qo'shiqlari bilan yig'ilganlarni xushnud etdi.

Tadbirda so'z ustalari tomonidan aytilgan latifalardan tomoshabinlarning ko'ngillari ko'tarilib, bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishdi.





## “YASHIL MAKON” – BARCHAMIZGA KERAK

**Mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, “yashil maydonlar”ni kengaytirish ishlariga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada mas’ul tashkilotlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish borasida qator Prezident farmon va qarorlari, davlat dasturlari, strategiyalar qabul qilindi. Shu asosda ekologik vaziyatni yaxshilash, transchegaraviy garmsel shamollari va chang-qum bo’ronlarining atrof-muhitga zararli ta’sirlarining oldini olish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.**

Bu yil bahorda “Yashil makon” loyihasi doirasida 125 million tup ko’chat ekish belgilangan. Bu haqda joriy yilning 29-mart kuni Prezident raisligida o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida ma’lum qilindi. Davlatimiz rahbari “Yashil makon” doirasidagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

“Yashil makon” nomiga emas, o’zimizning hayotimiz, o’pkamiz tozaligiga, jamiyatimizga, salomatligimizga, kerak bo’lsa g’ururimizga kerak. “Yashil makon” millatimizga, mamlakatimizga, ertangi kunimizga kerak. Kimdir kelib O’zbekistondagi ekologiyamizni to’g’ri- lab bermaydi. Kimdir kelib mahallamizga, Orol dengizining qurigan tubiga daraxt ekib bermaydi, hech qachon. Temir intizom va o’zimizning mehnatimiz natijasida pirovard maqsadga erishamiz” – deya yig’ilishda ta’kidlab o’tildi.



Klining xizmati tomonidan turfa xil gullar ekilmoqda.

Ma’lumki, bir gektar maydondagi daraxtlar bir kecha-kunduzda 220-275 kilogrammgacha karbonat angidrid gazini yutib, 180-215 kilogramm kislorod ajratadi. Bu miqdor o’rtacha 500 kishini kun davomida kislorod bilan ta’minlashga yetadi. Boshqacha aytganda, to’rt tup daraxt bir kishining kislorodga bo’lgan ehtiyojini qondiradi. Endi kombinatda faqat shu bahor mavsumida ekiladigan daraxtlar qancha kishini kislorod bilan ta’minlashini hisoblab olavering.



Umumiy yer maydoni 2,1 gektar bo’lgan joyga jami 2500 tub katalpa, pavlovniya kabi turli manzarali daraxtlar ekildi. Ushbu yerni soz holatga keltirish uchun shag’allar olib tashlanib, ikki yarim ming metr kub tuproq tashlandi.

Tashkillashtirilgan ushbu tadbir- da kombinat rahbarlari, mehnat faxriylari, faol ishchi-xodimlar, har- biy xizmatchilar ishtirok etib “O’zmet- kombinat” 80 yilligi” bog’i barpo etilishida o’zlarining hissalarini qo’shdilar.

Korxonaning tashqi hududida kombinat birlashgan kasaba



Navbatdagi eng muhim vazifa ekil- gan daraxtlarni parvarish qilish, nihol- larning qurib qolmasligiga erishish lozim. Ko’kalamzorlashtirilgan hudud- larda o’z vaqtida daraxtlarni sug’orish va parvarishlash yil bo’yi e’tibordan chetdan qolmasligi shart.

Hayotimiz, salomatligimiz uchun muhim bo’lgan yashil hududlarni kengaytirish, daraxt ekish har bir insonning burchi, vazifasidir. Bu kabi amalga oshirilayotgan ishlar natijasida shahrimiz, kombinatimiz hududi yurtimizning eng yashil va barhavo hududlaridan biriga aylanadi.

**Diyor ISMATOV.**

O’tgan davr mobaynida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 588 gektar “yashil bog’lar”, 662 gektar “yashil jamoat parklari”, Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida jami 40 kilometr masofada “yashil belbog”lar barpo etildi.

“O’zmetkombinat” AJning hududlarida ekologik holatni yaxshilash, Bekobodning kuchli shamoli ta’siridan himoyalash, tuproq eroziyasining oldini olish, mo’tadil mikroiklim sharoitini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kombinat atrofida “yashil belbog”lar – himoya daraxtzorlarini barpo etish bo’yicha keng ko’lamli ishlar olib borilmoqda. Xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish tashqari hududi atrofida “O’zmetkombinat” 80 yilligi” bog’i barpo etildi. 27-mart kuni ushbu bog’ning tantanali ochilish marosimi bo’lib o’tdi.

Bog’ning tantanali ochilish marosimida Bekobod shahar hokimi Nasrullo Boboyev, “O’zmetkombinat” AJ boshqaruv raisi – bosh direktor Rashid Pirmatov, mehnat faxriysi Abdusamad Roziqulov ushbu bog’ tashkil etilishida ishtirok etgan barcha tashabbuskorlarga, mehnatkashlarga o’zlarining minnadorchiliklarini bildirib, bunday xayrli ishlar bardavom bo’lishini tilashdi.

Shundan so’ng barcha tashrif buyurganlar atrofni yanada ko’kalamzorlashtirishda o’z hissalarini qo’shish uchun ko’chat ekishdi.



uyushmasi qo’mitasi tashabbusi bilan “Kasaba bog’i” ham tashkil etildi. Ushbu boqqa 19-aprel kuni birlashgan kasaba uyushmasi qo’mitasi apparat xodimlari, tarkibiy bo’linmalarining kasaba qo’mita raislari, Metallurglar madaniyat saroyi hamda tijorat ob’ektlari xodimlari tomonidan 1 000 tupga yaqin klyon manzarali daraxt ko’chatlari ekildi.

Bu yil bahor faslida kombinatda 60 ming dona manzarali daraxt ko’chatlari ekish rejalashtirilgan. Shuningdek, 10 ming dona daraxtlarning qalamchalari o’tqaziladi. Bundan tashqari kombinatning ichki yo’llari bo’ylab





## KORRUPSIYA - TARAQQIYOTIMIZ KUSHANDASI

Fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'anoq bo'ladigan eng dolzarb muammolardan biri bu korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi ekanligini, barcha iqtisodchilar va ma'rifatparvar insonlar qayd etishgan. Bozor iqtisodiyoti tizimi kushandasi, jamiyatlar, korxonalar va davlatlar o'rtasida ikki va ko'p tomonlama hamkorlik, savdo, investitsiya va madaniy-ma'rifiy hamkorlikning barqaror va intensiv rivojiga mislsiz ravishda to'siq bo'ladigan illatlar ham aynan shu korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvidir.

Avval G'arb, keyinroq Osiyo va Afrika davlatlarida bu illatlar chuqurlashib ildiz o'tdi, butun dunyo hamjamiyatida ushbu illatlar ta'siri, ko'lami va darajasi o'sib borayotgan ekan, bu illatlarga qarshi qanday kurashish kerak degan talab paydo bo'ladi. Qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilsa va amalga oshirilsa, mamlakatlar iqtisodiyoti va xo'jalik hayotiga rahna solayotgan bu ko'zga ko'rinmas baloning ta'sir kuchi va doirasi kamayadi?

Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi keng qamrovli tushuncha bo'lib, u jamiyatning ayrim qatlamlari, toifalari, guruhlari kundalik faoliyatiga aylanib, o'zaro bir-biriga chirmashib ketganligini tan olmasdan ilojimiz yo'q.

Faol fuqarolar, ma'rifatparvarlar, siyosatshunoslar, tarixchilar va jamiyat barcha a'zolari ushbu illatlarni tahlil qilishi va to'laqonli yechimini topish ustida bosh qotirishlari lozim.

Manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya jamiya-



timiz rivojlanishiga, demokratik islohotlar, yangilanish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash jarayoniga har jihatdan xalaqit bermoqda. Garchi bu masala uzoq yillardan beri ta'kidlanib kelayotgan bo'lsada va ijtimoiy tarmoqlarda mansabdor shaxslarning "poraxorlik va tamagirlik" bilan qo'lga tushganlari namoyish etib borilayotganiga qaramasdan ushbu illat jamiyatimiz hayotidan butunlay daf bo'lmayapti.

Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi bilan mamlakatimizda Xitoy xalq respublikasi, Singapur va Shvetsiya tajribasiga o'xshagan yuqoridan quyigacha qat'iy ishlaydigan iyerarxiya tizimi ishga tushurilmoqda. Bu tabiiy jarayonni sun'iy ravishda sekinlashtirmaslik har bir kor-

xona va tashkilotlar oldiga vazifa qilib qo'yilgan.

Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi - mamlakatimiz, xalqimiz taqdiri, davlatchiligimiz, jamiyatimiz kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi zamonda misli ko'rilmagan muvaffaqiyatga erishayotgan Yaponiya, Singapur va Xitoy ham o'z xalqi milliy an'analarini saqlab qolish, diniy qadriyatlarni mustahkamlash, vatanparvarlik mafkurasini ongga singdirish orqali milliy taraqqiyotga erishdilar.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi - tarqqiyotimiz kushandasi, farovon hayotimizga tahdid soluvchi xavfli illat. Bu illatlarga qarshi kurashish huquq tartibot idoralarninggina vazifasi emas, balki barchamizning ishimiz, maqsadimiz va o'yimizga aylanishi dardkor.

Kombinat ishchi-xodimlaridan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining har qanday shakliga nisbatan murosasiz bo'lishlarini so'rayman.

O'adri metallurqlar! Sizlarni befarq bo'lmaslikka, poraxorlik va korrupsiya, manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashishda faol hayotiy pozitsiyani egallashga chaqiraman.

**To'lqin XOJIYEV,**  
Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti direktori.

## O'ZGAGA QO'YILGAN TUZOQ

Mamlakatimizda korrupsiyaga, firibgarlikka qarshi kurashish doirasida bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Ammo oramizda o'z nafsining izmidan chiqolmay, bu illatlar balosiga giriftor bo'layotgan kimsalar hanuz uchrab turibdi. Joriy yilning 22-fevral kuni jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudida shunday baloga uchragan hamsahrimiz Asal Dilshodova (maqoladagi ism-familiyalar o'zgartirilgan) jinoiy ishi ko'rib chiqildi. Bekobod shahar Tibbiyot birlashmasi kichik xodimasi, muqaddam sudlangan A. Dilshodova o'zgalarni aldab, pullarini o'zlashtirishdan ham tap tortmaydiganlardan ekan.

Dilovar Malikova jiyani Bekobod shahar Tibbiyot birlashmasiga ishga joylashtirib qo'ymoqchi bo'ladi. Buni qarangi, muayyan miqdordagi pul, pora evaziga "tanishlari orqali ishga kiritib qo'yguzuvchi", "hojatbaror" inson ham topila qoldi. Tanishlari shu birlashmada ishlaydigan Asal Dilshodovani unga tavsiya qilishadi. Shundan so'ng u 2024-yil 9-yanvar kuni telefon qilib

o'zini tanishtiradi.

Jiyani Bekobod shahar Tibbiyot birlashmasiga ishga joylashtirib qo'yishda yordam so'raydi. Bunga javoban A. Dilshodova tanishlari bilan gaplashib ko'rib, ishga kirishning puli qancha bo'lishini bilib, so'ng aytishini bildiradi. Shu kunning o'zida D. Malikovaga aloqaga chiqib ishga joylashtirish narxi 700 AQSH dollari bo'lishini, agar rozi bo'lsa ertaga jiyani bilan Tibbiyot birlashmasi binosi oldiga hujjatlarni olib kelishlarini so'raydi. Shundan so'ng ular 10-yanvar kuni soat 19:00 larda Bekobod shahar Tibbiyot birlashmasi oldida uchrashadilar.

### SUD MAJLISIDA

Markaziy shifoxona hovlisida D. Malikovadan 700 AQSH dollari va kerakli hujjatlarni oladi. Pul va hujjatlarni olib ketayotgan vaqtida huquq-tartibot idoralari xodimlari tomonidan ushlanadi.

Asal Dilshodova jinoyati o'z isbotini topadi. Uning o'zi ham aybiga iqrar bo'ladi.

Dilovar Malikovadan 700 AQSH dollarini uning jiyani shahar Tibbiyot birlashmasiga ishga olib kirib qo'yishi evaziga olganini, ammo uni ishga kiritishga harakat ham qilganligini tan oladi.

Unga pul kerak bo'lganligi uchun dollarlarni olib, keyinchalik o'zining ishini bitirib olganidan so'ng 700 AQSH dollarini egasiga qaytarib bermoqchi bo'lganligini aytadi.

Sudda bunday ish bilan birinchi marotaba shug'ullanganini, qilgan ishi noqonuniy ekanligini bilgani, pushaymonligini, shularni inobatga olib, unga nisbatan qonunda nazarda tutilgan yengillik berishni



so'raydi.

Albatta, bu holat bo'yicha Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bo'yicha sudlanuvchiga qilmishiga yarasha qonuniy jazo tayinladi.

Endi bir mushohada qilib ko'raylik. Hech shubhasiz, Asal ham Dilovar ham tegishli qonun asosida mamlakatimizda korrupsiyaga, firibgarlikka qarshi murosasiz kurash olib borilayotganidan xabardor bo'lishgan. Ammo ular uchun qonun talabidan ko'ra nafs, qanday bo'lmasin o'z ishlarini bitirib olish mayllari ustunlik qilgan.

Albatta, firibgarning tuzog'iga ilingan hamsahrimizga achinamiz. Biroq shu o'rinda masalaning boshqa jihatiga e'tibor qaratish lozim. Yuqoridagi kabi aksariyat jabrlanuvchilar hayot yo'lida uchragan masalani hal etish uchun qonunni buzishgan, ya'ni pora berishgan. Firibgarlarning nayrangiga ilinmaslik, korrupsiyaga aralashmaslik uchun, avvalo, har bir inson o'zi qonunga rioya qilishi, har bir masalani qonun yo'li bilan hal etishi shart.

Xulosa qilib aytganda, firibgarlikka, korrupsiyaga qarshi kurashishda barchamizdan birdek mas'uliyat talab etiladi.

**Farhod ZOKIROV,**  
Jinoyat ishlari bo'yicha  
Bekobod shahar sudi sud'yasi.





## NOGIRONLIK DAVRI ISH STAJIGA QO'SHILADIMI?

Keyingi besh yildan buyon ikkinchi guruh nogironi nafaqasini olib kelaman. Kombinatda mehnat faoliyatimni to'xtatmaganman. Endi yoshga doir pensiyaga chiqishimga oz qoldi. Men nogironlik nafaqasini olgan yillar ish stajimga qo'shiladimi?

O. Karimova.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom"ning 79-bandiga asosan Pensionerning yoshga doir pensiya tayinlanganidan keyingi orttirilgan ish staji va ish haqi, nogironlik pensiyasini qayta hisoblashda ish staji va ish haqi sifatida inobatga olinmaydi hamda oxirgi o'n yillik mehnat faoliyatiga kiritilmaydi.

Nizom qoidasiga e'tibor qaratsa, yoshga doir pensiya tayinlanganidan keyingi orttirilgan ish staji deyilmoqda. Sizning

holatingizda yoshga doir pensiya tayinlanmasdan nogiron bo'lgan va shu davrda nogironlik nafaqasini olgan bo'lsa, bu holatda yoshga doir pensiyaga chiqqungacha bo'lgan davr ish stajiga qo'shib hisoblanishi lozim.



## XORIJDA DAVOLANGANDA KASALLIK VARAQASINI KIM BERADI?

Sog'ligimni tiklash maqsadida xorijda davolanmoqchiman. Biroq ishxonamga kasallik varaqasini qanday topshiraman. Bizga qarashli poliklinikamizda kasallik varaqasi ochmaymiz deyishmoqda. Bu holatda qanday yo'l tutishim kerak?

B. Olimov.

gi hujjatlarning davlat yoki rus tilidagi notarial tasdiqlangan tarjimasini taqdim qilinganda, mehnatga layoqatsizlikni tasdiqlovchi asoslarni inobatga olib, bemorning yashash yoki ish joyidagi davolash-profilaktika muassasasining vrachlik maslahat komissiyasi tomonidan mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtiriladi".

Mazkur asosga ko'ra, davolanlik to'g'risidagi hujjatlarning davlat yoki rus tilidagi notarial tasdiqlangan tarjimasini yashash joyingizdagi yoki korxonangizga qarashli poliklinikaga taqdim qilganingizda sizga mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtiriladi.



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2015-yil 20-martdagi 25-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Mehnatga layoqatsizlik varaqalarini berish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma"ning 25-bandida bu savolingizga javob topasiz. "Chet elda vaqtincha bo'lgan vaqtda kasallanganlik yoki chet elda davolanganlik to'g'risida-

## MEHNAT SHARTNOMASI BEKOR QILINISHI MUMKINMI?

Ishlab chiqarish zarurati bilan rahbariyat tashabbusiga ko'ra vaqtincha o'tkazilgan joyimda ishni uddalay olmayapman. Shuning uchun ham meni ishdan haydashlari mumkinmi?

A. Majidov.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi "Sudlar tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilishni tartibga soluvchi qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 26-son qarori chiqqan. Mana shu qaror asosida sudlar xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi sababli egallab turgan lavozimiga yoki bajarayotgan ishga muvofiq emasligi asosi bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan shaxslarni ishga tiklash haqidagi nizolarni hal qiladilar.

Xodim u bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga ko'ra, aynan bajarishi shart bo'lgan ishni uddalay olmayotgan bo'lsagina, noliyqligi bo'yicha u bilan mehnat shartnomasini bekor qilinishiga yo'l qo'yilishi belgilangan. Biroq qarorda xodimning rozilgisiz ishlab chiqarish zarurati bilan yoki ish to'xtab qolganda ish beruvchining tashabbusiga ko'ra vaqtincha o'tkazilgan ishni uddalay olmayotgan bo'lsa, mehnat shart-

nomasini ishiga noliyqligi bo'yicha bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, chunki xodim o'tkazilgan ish o'rni mehnat shartnomasida ko'rsatilmagan, deb belgilangan.

Xodimning o'z ishiga noliyqligi bajarishi shart bo'lgan, topshirilgan ishni uddalay olmayotganligini isbotlovchi aniq faktlar (tekshiruv dalolatnomalari, bevosita rahbarining, nazorat qiluvchining bildirish xatlari, hisobotlar, attestatsiya hujjatlari va ishning past sifatligini, yaroqsiz mahsulot chiqarayotgani, ish hajmini hamda ishlab chiqarish normasini bajara olmayotganini va hokazolarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar) bilan tasdiqlanishi lozim.



## SHILQIMLAR UCHUN QANDAY JAVOBGARLIK BELGILANGAN?

Ba'zan yigitlar qizlarga gap otishadi. Imo-ishora qilib tashqi qiyofasini yoki qomatini ko'rsatishadi. Bunday shilqimlarni javobgarlikka tortsa bo'ladimi?

R. Xolmonova.



Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 41 prim 1-moddasiga ko'ra shahvoniy shilqimlik qilish, ya'ni shaxsga nisbatan uning uchun nomaqbul bo'lgan hamda uning sha'ni va qadr-qim-

matini tahqirleydigan, shaxsning tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imo-ishora qilishda, teginishda, chaqirishda ifodalangan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan harakatlarni bir marta qo'pol ravishda yoki bir necha marta sodir etish, - bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

## KONVENSIYADA QANDAY TALABLAR MAVJUD?

"Xalqaro mehnat tashkilotining Ish haqini himoya qilish to'g'risidagi 95-sonli konvensiyasini ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun kuchga kirdi. Unda qanday talablar mavjud?

F. Salimov.



O'zbekiston Oliy Majlisi Senatining 50-yalpi majlisida "Xalqaro mehnat tashkilotining Ish haqini himoya qilish to'g'risidagi 95-sonli konvensiyasini ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun ko'rib chiqilib, ma'qullandi. 12-mart kuni Prezident ushbu qonunni imzoladi.

Konvensiyada xodimlarning ish haqini qonuniy

ravishda va belgilangan muddatlarda o'z vaqtida to'lanishi, ish haqi bevosita xodimga ish kunida va ish joyida naqd shaklida to'lanishi belgilangan. Ish haqini qarz majburiyatlar, tilxat, kupon yoki boshqa shaklda, shuningdek, tarkibida alkogol miqdori yuqori bo'lgan spirtli ichimliklar, organizm uchun zararli giyoh-

vand moddalar ko'rinishi-da to'lash taqiqlangan. Xodimning ish haqini erkin tasarruf eta olishi, ish haqidan ushlab qolinishi va chegarasi faqat milliy qonunchilikda belgilanishi, xodimlarga ish haqini hisoblanishi va tarkibi to'g'risida axborot olishlari kabi huquqlaridan foydalana olishi lozimligi va boshqa talablar mavjud.




## IJTIMOYIY XAVFI YUQORI BO'LGAN KASALLIK

Sil – umumiy yuqumli kasallik bo'lib, organizmning hamma a'zolarini shikastlashi mumkin. Uni ko'zga ko'rinmaydigan mayda bakteriyalar – sil tayoqchalari yuzaga keltiradi. Sil tayoqchalari organizmga kirgach, uzoq vaqt yashovchanligini saqlab qoladi. Oradan ko'p yillar o'tgach, organizm uchun noxush sharoitlar ta'sirida, ko'p hollarda, sil tayoqchalari o'pkani zararlaydi, ba'zi hollarda markaziy nerv tizimi, suyak-bo'g'im, buyraklar, jinsiy a'zolar, limfa tugunlari, qorin bo'shlig'i

a'zolari, teri, ko'z va boshqa a'zolar sili

rivojlanishi mumkin.



Agar immunitet yoki dori-darmonlar kasallikni vaqtida to'xtatmasa, inson hayotdan ko'z yumishi ham mumkin. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, sil kasalligi butun dunyoda keng tarqalgan o'lim sabablari o'nligiga kiradi.

Yuqumli surunkali kasallik bo'lgan sil bilan odamlardan tashqari, uy hayvonlari (asosan, qoramol), uy parrandalari (tovuq, kurka) kasallanadi.



### ALOMATLARI

Sil kasalligiga aksari yosh bolalar (chunki ularda hali immunitet sust rivojlangan bo'ladi), balog'atga yetish davridagi o'smirlar (nerv-endokrin boshqaruvining beqarorligi tufayli), shuningdek, organizmning infeksiyaga chidami susaygan yoshi katta odamlar chalinadi.

Silga chalingan insonlarda eng birinchi galda yo'tal kuzatiladi. Shu bilan birga, quvvatsizlik, ko'p terlash, ko'krak qafasida og'riq, ishtaha pasayishi, ozib ketish, tez charchash kabi holatlar ham bemorni bezovta qilishi mumkin. Ular ko'pincha bunday belgilarga e'tibor qilavermaydi va shifokorga murojaat etmay, o'zlari mustaqil davolanishga urinadi. Biroq keyinchalik bu belgilar zo'rayib, bemor qon aralash balg'am tuflay boshlaydi. Bu esa xastalik ancha kuchayib ketganidan dalolat beradi.

### QANDAY YO'LLAR ORQALI YUQADI?

Sil infeksiyaning asosiy o'chog'i bemorlar. Sil tayoqchalari ko'p hollarda organizmga nafas yo'li orqali o'tadi, o'pka to'qimalarida rivojlanadi va ko'payadi. O'pka to'qimasida bo'shliq (kaverna)lar hosil bo'ladi. Bu bo'shliqlarda millionlab sil mikroblari bo'ladi. Mikroblar bemor yo'talganda, aksirganda, qattiq gaplashganda, tupurganda balg'am zarralari bilan atrofga otilib chiqadi va sachraydi. Bu ko'zga ko'rinmas balg'am zarralarida minglab sil tayoqchalari bo'ladi. Sil bakteriyalari bir necha soatgacha saqlanishi mumkin, ayniqsa, xona havosida uzoq vaqt saqlanib qoladi. O'pka sili bilan kasallangan bemor xonada uzoq vaqt qolsa, bakteriyalarning soni ko'payib, boshqa kishilarning nafas yo'llariga o'tadi. Bu silni yuqtirishning asosiy yo'li bo'lib, havo-tomchi usuli deb yuritiladi. Bemor duch kelgan joyga balg'am tashlasa, vaqt o'tib qurib, sil tayoqchalari havoga chang bilan ko'tariladi va nafas yo'llari orqali sog'lom kishilarga o'tadi. Demak hech kim sil tayoqchalarining

yuqishidan himoyalangan emas, chunki havo hamma uchun umumiydir.

### AVLODDAN O'TMAYDI

Sil irsiy kasallik emas, u nasldan naslga o'tmaydi. Faqat yaqin muloqotda bo'lganligi sababli bemorning oila a'zolariga kasallikning yuqish ehtimoli yuqori bo'ladi. Shuning uchun sil kasalligi ba'zi hollarda oilaviy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.



### OLDINI OLISH

Sil bilan kasallanishning oldini olish davolashga qaraganda osonroq. Shuning uchun, har bir inson uning oldini olish choralarini bilishi kerak.

Kasallikning oldini olish ijtimoiy, sanitariya, kimyoviy va maxsus tadbirlarni o'z ichiga oladi. Aholi yashaydigan joylarni obodonlashtirish moddiy hayot sharoitini yaxshilash, aholining umumiy madaniyatini oshirish va sanitariya bilimlarini targ'ib qilish, jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shifokor buyurgan kun tartibiga amal qilish kerak.

Har yili kamida bir marta shifokor nazoratidan o'tib turing.

Kashandalik, ichkilikbozlik va giyohvandlik kabi illatlarning shakllanishiga yo'l qo'ymang, chunki ular kasallik rivojlanishiga zamin yaratadi.

Kun davomida o'z vaqtida ovqatlaning.

Xonalarga quyosh nuri tushib turishini ta'minlang. Sil tayoqchalari zax va qorong'i joylarda uzoq vaqt saqlanib qoladi. Qishda fortochkani ochib, xonani tez-tez shamollatib turing. Iliq va issiq kunlarda esa derazani kun bo'yi ochib qo'ying.

Xonalar, jihozlari changini nam yoki ho'l latta bilan arting.

O'rin-ko'rpa, yostiq kabi yuvilishi qiyin bo'lgan buyumlarni oftobda yoyib turing.

Sog'ayishni istagan har-bir bemor shifokor tavsiyalarini to'la-to'kis bajarishi hamda unga qat'iy amal qilishi lozim. Shundagina u o'zi uchun ham, atrofdagilar uchun ham xavf tug'ilishining oldini oladi.



## TASHQI LIMFA TUGUNLARI SILI

O'pkadan tashqari a'zolar silida tashqi limfa tugunlari sili yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. U 30-35 foizni tashkil qiladi.

Tashqi limfa tugunlari silida qo'shimcha bo'yin va jag' osti limfa tugunlari zararlanadi, qo'ltiq, chov sohalari va boshqa joylarda kasallik kamroq uchraydi. Kasallik ko'pincha surunkali kechadi. Asosan bir nechta limfa tugunlari zararlanadi, boshlanishida kattalashgan limfa tugunlarining qattiq zanjiri aniqlansa, keyinchalik bir biriga qo'shib ketib to'daga aylanadi. Limfa tugunlari markazida kazeoz hosila yumshab, erib absessga aylanadi, yiring yorilib, oqma yara paydo bo'ladi. Oqma yara limfa tugunlari silning har xil bosqichlarida kuzatilishi mumkin.

Tashqi limfa tugunlari silining kechishi o'ziga xos simptomlarining yo'qligi bilan farqlanadi. Ko'pchilik hollarda bemorlarning umumiy ahvoli qoniqarli bo'ladi. Bemorlarda subfebril harorat, holsizlik, ko'p terlash, ishtaha pasayishi kuzatiladi. Diagnostikada anamnez muhim ahamiyatga ega. Qon tahlilida anemiya, limfotsitoz, leykotsitoz, SOEning oshishi kuzatilishi mumkin. Bemorning ko'rish limfa tugunlarini paypaslab silga xos xususiyatlarini aniqlash, intoksikatsiya simptomlari, sildan zaharlanishni tasdiqlash mumkin.

Tashqi limfa tugunlari silida tuberkulin sinamalari 90 foizgacha musbat bo'lishi mumkin. Yakuniy tashhis tugunning funksiyasi yoki jarrohlik usuli bilan olib tashlangandan keyin gistologik tekshiruv natijasiga asoslanadi.

Kasallikni limfoma, limfasarkoma, limfagranulomatoz, sarkaidoz, feminoz, nospesifik limfoadenopatiyalar bilan qiyosiy diagnostika qilish lozim.

Tashqi limfa tugunlari silini davolash tamoyillari, sil kimyo terapiyasining umumiy tamoyillaridan farq qilmaydi. Potogenetik va simptomatik davolash tadbirlari, immunoterapiya, vitaminlar qo'llashdan iborat. Davolash tadbirlarini o'tkazish davomida, limfa tugunlari bezidagi jarayon absessga aylangan hollarda jarrohlik muolajasi-noduloektomiya operatsiyasi bajariladi.

**Mirzahoshim DO'SMURATOV,**  
Bekobod shahar bosh ftiziatr.



## “METALLURG” SO‘NGGI DAQIQALAR “QURBONI”...

“Metallurg” 2024-yilgi mavsumda “so‘nggi daqiqalar qurboni”-ga aylanmoqda. “Lokomotiv” bilan 86-daqiqada o‘tkazib yuborilgan gol evaziga g‘alabani qo‘ldan boy berib, durang bilan kifoyalangan bo‘lsak, “Neftchi” va “Dinamo”ga qarshi o‘yinlarda alamli mag‘lubiyatga uchradi.

4-turda ham 28-mart kuni Jizzaxda “Dinamo” mehmoni bo‘lgan “Metallurg” g‘alabaga yaqin edi. Birinchi taymda to‘liq ustunlikka ega bo‘lgan yigitlarimiz Sardor Abduraimovning goli evaziga hisobni ochishga muvaffaq bo‘lishdi. Shahzodbek Ubaydullayevning jarimadan tepgan to‘pini darvozabon qiyinchilik bilan qaytardi. Ammo to‘pga birinchi bo‘lib yetib kelgan Sardor Abduraimov uni boshi bilan urib, darvoza to‘riga joyladi – 0:1.

Afsuski, bu “Metallurg”ning mazkur uchrashuvdagi birinchi va oxirgi muvaffaqiyati ekan. Birinchi taymda va ikkinchi taymning 15-daqiqasi mobaynida ko‘plab vaziyatlar yaratgan, o‘nlab standartlarga ega bo‘lgan bekobodliklar hujumni yakunlashda oqsadi. G‘alabaga loyiq edik... Ammo bu safar ham omad qushini ushlab qololmadik.

71-daqiqada samarqandliklar penaltidan hisobni tenglashtirishdi. Hakam tomonidan qo‘shib berilgan kompensatsiya vaqtida g‘alabani olib ketishdi – 2:1.

## O‘YIN QOLDIRILDI

Qatar mezbonlik qilayotgan U-23 Osiyo Kubogida O‘zbekiston U-23 terma jamoasi ham ishtirok etmoqda. Bu terma jamoada “Nasaf” va “Paxtakor” klublarining 3 nafardan ortiq futbolchisi ham kiritilgan. “Superliga va Proliga reglamenti”ning 10.9-bandida olimpiya terma jamoasi uchun uch futbolchisini taqdim etgan klub oldindagi bellashuv sanasini o‘zgartirishni so‘rashga haqli ekanligi ko‘rsatilgan. “Nasaf” va “Paxtakor” bu imtiyozdan foydalanishga qaror qildi. Shuningdek, kelishuv asosida “Metallurg” – “Olimpik” uchrashuvi ham boshqa sanada o‘tkaziladi.

Superliga 5-turning qoldirilgan bellashuvlari qachon bo‘lib o‘tishi masalasiga keyinroq oydinlik kiritadi.



## MUSOBAQA JADVALI

No	Jamoa	O‘	G‘	D	M	T-N	O
1	“Andijon”	5	3	2	0	11-5	11
2	“Neftchi”	4	3	0	1	4-2	9
3	“Lokomotiv”	5	2	2	1	7-4	8
4	“Nasaf”	4	2	2	0	5-2	8
5	OKMK	5	2	2	1	6-4	8
6	“So‘g‘diyona”	5	2	2	1	7-6	8
7	“Qizilqum”	5	2	1	2	6-5	7
8	“Navbahor”	4	1	3	0	8-6	6
9	“Paxtakor”	4	1	1	2	5-6	4
10	“Olimpik”	4	1	1	2	3-5	4
11	“Surxon”	5	1	1	3	7-11	4
12	“Dinamo”	5	1	1	3	4-8	4
13	“Metallurg”	4	0	2	2	3-5	2
14	“Bunyodkor”	5	0	2	3	4-11	2



## MUROSASIZ KURASHLARGA BOY BO‘LDI

Yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan “Boshqaruv raisi kubogi-2024” mini-futbol musobaqasi g‘olib va sovrindorlari munosib taqdirlanishdi.

Kombinat yoshlar yetakchilar Kengashi tashabbusi bilan joriy yilning 25-fevral sanasidan boshlab o‘tkazib kelingan “Boshqaruv raisi kubogi-2024” mini-futbol musobaqasi o‘z nihoyasiga yetdi. Bu yilgi musobaqada kombinatning 25 ta sex jamoalari va 300 nafardan oshiq yoshlar ishtirok

etishdi.

Qiziqarli va murosasiz o‘tgan musobaqada Ijroiya apparati yoshlari jamoasi g‘olib chiqdi.

Ikkinchi o‘rinni Ferroqotishmalar ishlab chiqarish bo‘linmasi, uchinchi o‘rinni Zoldir prokatlash bo‘linmalari yoshlari jamoasi egalladilar.

G‘olib va sovrindor jamoalarga pul mukofoti, diplom va medallar hamda esdalik sovg‘alar topshirildi.

## O‘ZBEKISTON KUBOGI

### FINAL “ISTIQLOL”DA O‘TKAZILADI

12-apreldan e‘tiboran nufuzi jihatidan ikkinchi o‘rinda turuvchi O‘zbekiston kubogi bahslarining guruh bosqichi start oldi. Hal qiluvchi final uchrashuvi manzili allaqachon aniqlanib ulgurilgan ushbu musobaqada bu mavsum 30 ta jamoa Kubok uchun yo‘lga tushgandi. Shulardan 6 tasi saralash bahslaridan o‘ta olmadi. Qolgan 24 ta jamoa esa to‘rt-tadan 8 ta guruhga qur‘a natijasiga ko‘ra taqsimlandi. Final uchrashuvi mavsum yakunida Farg‘ona shahridagi “Istiqlol” stadionida bo‘lib o‘tadi. Bu maskan “Bobur arena” hamda OKMK sport majmualarini tanlovda yutib chiqib, finalga mezbonlik qiladigan bo‘ldi.

### E‘TIBOR ORTDI

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, mamlakat chempionati hamda O‘zbekiston kubogi bahslarining negizi tubdan o‘zgardi. O‘zbekiston kubogi bahslariga ham muxlislar tomonidan e‘tibor ortdi.

Yangi Kubokning birinchi sahibi Namanganning “Navbahor” futbol klubi bo‘ldi. 1992-yili Samarqandda o‘tkazilgan final uchrashuvida navbahorchilar penaltilar seriyasida Qo‘qonning “Temiryo‘lchi” jamoasini 6:5 hisobida dog‘da qoldirgandi.

O‘zbekiston kubogini eng ko‘p qo‘lga kiritgan jamoa – “Paxtakor” sanaladi. Toshkentliklar 13 marta sovrin sahibi bo‘lishgan. So‘nggi uchta mavsumda kubokni o‘zini qilib kelayotgan Qarshining “Nasaf” futbol klubi esa Toshkentning “Bunyodkor” jamoasiga sovrinlar soni bo‘yicha tenglashib oldi. Har ikkala jamoada endilikda 4 tadan Kubok bor.

### JAMOAMIZ KEYINGI BOSQICHGA CHIQDI

Mamlakat milliy chempionatining dastlabki to‘rtta turida ikkita durang va ikkita mag‘lubiyat qayd etgan “Metallurg” nihoyat g‘alaba bilan muxlislarini xursand etdi. Bu g‘alaba O‘zbekiston kubogining G guruh bosqichi 1-turiga to‘g‘ri keldi. Mahorat bobida raqibdan ancha ustun bo‘lgan bekobodliklar “Sirdaryo FA” jamoasini 5:0 hisobida mag‘lubiyatga uchratdi.

O‘zbekiston kubogining 2-turida 19-aprel kuni “Metallurg” Pro liga vakili Toshkent shahrining “Do‘stlik” futbol klubi mehmoni bo‘ldi. Bu o‘yinda jamoamiz 2:0 hisobida g‘alaba qozondi. Bu g‘alabadan so‘ng jamoamiz keyingi bosqich yo‘llanmasini muddatidan oldin qo‘lga kiritdi.

26-aprel kuni guruh g‘olibi-ning nomini aniqlab beradigan 3-tur bahsida “Neftchi” – “Metallurg” o‘yini-nda 1:1 hisobi qayd etildi.

### AYOLLAR BIRINCHI LIGASI

7-aprel kuni ayollar o‘rtasida birinchi liga jamoalari 2024-yil mavsumini boshlashdi. O‘tgan yili oliy ligada so‘nggi o‘rinni egallagan “Metallurg-W” bu yil birinchi ligada ishtirok etmoqda. Jamoamiz birinchi turda “Dinamo-W” bilan maydonga tushib, imkoniyatni boy berdi – 0:1.

Ikkinchi turda esa 14-aprel kuni “Metallurg-W” o‘z maydonida “Andijon-W” jamoasini qabul qildi. Bu o‘yinda hisob ochildi – 0:0.

“Metallurg-W” uchinchi turda 22-aprel kuni “Orol-W” bilan uchrashib 0:1 hisobida mag‘lub bo‘ldi.

“Metallurg-W” 4-turda “Xorazm-W” jamoasini mag‘lubiyatga uchratdi – 1:2.



## IBRATLI HIKOYALAR

## TO'G'RI SO'Z

Shoh o'ziga munosib voris tanlash maqsadida mamlakatdagi o'spirinlarni yig'ibdi va hammasiga bittadan urug' berib, olti oy ichida shu urug'lardan eng chiroyli gul o'stirgan yigit o'zining vorisi bo'lishini aytibdi.

Belgilangan vaqt o'tibdi. Hamma yigitlar bir-biridan chiroyli gullarni olib kelishibdi. Ular orasida faqat bir o'spirin gulsiz kelgan ekan.

- Nega gulingni olib kelmading?

- Men har qancha harakat

qilmay, gulni o'stira olmadim, - deb javob qilibdi.

Shunda shoh:

- Men aynan shu yigitni o'zimga voris qilaman, - debdi.

Vazirlari taajjublanib, buning sababini so'rashganida shoh shunday javob qilibdi:

- Chunki, men urug'larni tarqatishdan bir kun oldin hammasini qaynatgan edim. Ulardan gul tugul nish ham chiqmasdi. Men aynan shu yigitning to'g'ri so'zligi uchun o'zimga voris qilaman, - deb javob qilibdi.



## BAXTNI QIDIRISH

O'qituvchi maktabga rangli sharlarni olib kelib, bolalarga ularni puflab, so'ng o'z ismlarini yozib qo'yishni buyuribdi. Ular aytilgan ishni bajarib bo'lishgach, puflangan sharlarni maktab yo'lagiga olib chiqishibdi. O'qituvchi sharlarni aralashtirib tashlab, o'quvchilarga 3 daqiqa ichida hamma o'z ismi tushirilgan sharni topishi lozimligini aytibdi. Bolalar chopib borib, o'ziga tegishli bo'lgan sharni izlashga tushishgan ekan, lekin vaqt tugaguniga qadar uni topa olishmabdi...

Shunda o'qituvchi bolalarga: "Hammangiz o'zingizga yaqin turgan sharni oling-da, unda kimning ismi yozilgan bo'lsa, o'shaning qo'lga bering", debdi. Oradan 2 daqiqa o'tarotmas barchaning qo'lida ismi yozilgan rangli shar bor edi.

Shunda o'qituvchi shunday degan ekan: "Bu sharlar xuddi baxt kabitir - kimki uni faqat o'zi uchun qidirsas, topa olmaydi. Biroq, hamma o'zgalar haqida qayg'urib, bir-biriga yordam bersa, uni ancha tezroq topish mumkin bo'ladi".



## QISQA HIKOYALAR

## SHIFOXONADA



Ayol mashinani yelday uchirib borardi. Yo Xudoyim, ishqilib, vaqti-da yetib bora olsa, bas! Reanimatsiya xonasidan chiqqan shifokorning yuz ifodasidan u hammasini tushundi. Ho'ngrab yig'lab o'tirib qoldi.

- U hushiga kelmadimi?

- Xonim, - ohista gap boshladi doktor, - siz o'zingizni baxtiyor deb bilmog'ingiz kerak. Eringizning oxirgi so'zlari "Men seni sevaman, Meri!" degan xitob bo'ldi...

Ayol yalt etib, doktorning yuziga qaradi va shart ortiga burildi.

- Minnatdorman, - sovuqqina javob qildi u. Uning ismi Judit edi...

**Den ENDRYUS.**

## BECHORA

Yovuzlikning qiyofasi bo'lmaydi, deyishadi. Chindan, uning yuzidan hech narsani anglab bo'lmasdi. Go'yo u sezmayotganday, axir, bunaqa og'riqqa chidab bo'larmidi? Nahotki, u ko'zlarimdagi dahshatni ko'rmayapti? Yuzimdagi qo'rquv va vahimani-chi? Yo'q, u juda-juda xotirjam, aytish mumkinki, o'zining yaramas vazifasini mahorat bilan ado etdi. Nihoyat, oxirida mehribonlarcha menga tayinladi: "Marhamat qilib, og'zingizni chayib tashlang!"

**Brayan NYUELL.**

BILIMINGIZNI SINAB  
KO'RING!

Qur'onda ishora qilingan eng katta va eng kichik hayvonni bilasizmi?

\*\*\*

Bu jihazni XIX asr boshlarida fransiyalik rashkchi erlar o'ylab topishgan. Shuning uchun ham uning bugungi nomi "rashk" deb ataladi. Bu jihaz haqidagi taassurotlar har doim bir jonzot, kattagina bir hayvon surati orqali uyg'otiladi. Bu qaysi hayvon?

\*\*\*

"Yeti favj qo'shinimni ketma-ket dushman ustiga yuborib turishni maslahat ko'rdim. Jangu jadal o'ti ko'kka ko'tarilgach amr qildimki hirovul favjlari pistirmadan turib g'animga o'q yoy yog'dirsin. Shiqovul va chapovul qanoatidagi favjlarga esa hujumga o'tishni buyurdim".

Sohibqiron Amir Temur o'z Tuzuklarida bayon etgan mazkur jumalardagi "Hirovul", "Shiqovul" va "Chapovul" so'zlari nimani anglatadi?

\*\*\*

Xoja Ahmad Yassaviy o'z

falsafiy dunyoviy qarashlari orqali shunday iboralarni qayd etgan: men juda uzoq umr ko'rdim. Hayotim mobaynida 3 narsaga guvoh bo'ldim. Bir umrlik xazina nima ekanligini bildim, eng og'ir dard neligini angladim. Eng yaxshi qasosni qanday olmoqlikni tushunib yetdim. Yassaviy hazratlari aytishlaricha bir umrlik xazina - bu sabr-toqat qilish ekan. Eng yomon dard o'z kasaliga bog'lanib qolish ekan. Eng yaxshi qasos olish deb Ahmad Yassaviy hazratlari qanday xislatni nazarda tutganlar?

**Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.**

**Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.**

\* Toji-Mahal.

\* Kemani taqvoga qiyoslashgan.

\* Xudoning va o'limning haqligini yodingda tut, qilgan yaxshiligingni unut.

\* Asal. Toza asal asrlar bo'yi aynimay saqlanadi. "Asal aynimas, sariyog' sasimas" degan maqol bor.



**MUASSIS:**  
O'zbekiston metallurgiya  
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

WWW.uzbeksteel.uz

**Muharrir:**  
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar  
"O' zmetkombinat"  
aksiyadorlik jamiyatining  
Metallurglar madaniyat saroyida  
joylashgan.

Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta  
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida  
terilib, sahifalandi va "Niso  
nashriyot va matbaa uyi" MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili:  
O'rta Chirchiq tumani "Mash'al"  
mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

**Sahifalovchi:**  
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00  
Bosishga topshirildi-14.20  
Adadi 600. Bichimi A-3.  
ISSN 2181-645X  
Gazeta "O' zmetkombinat"  
Ajda bepul tarqatiladi.